UO'K 636.26:636.28

TURLI ETOLOGIK TIPGA MANSUB QORAKO'L QO'YLARIDA JUN MAHSULDORLIGI KO'RSATKICHLARI

Urimbetov Axmet Abdirazakovich
qishloq xo'jaligi fanlari doktori (DSc)
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali
Zaripbaev Sadatdin Kuwanıshbay ulı
magistrant
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Qizilqum cho'lining keskin ekologik sharoitida boqilayotgan sur qorako'l qo'ylarining jun mahsuldorligi yosh, jins va rangdorlik belgilariga bog'liq holda o'rganildi. Tadqiqotlar Taxtako'pir tumani hududida joylashgan ishlab chiqarish podalarida olib borilib, qo'ylarning yillik jun chiqimi, jun tolalarining uzunligi va sifati kompleks ravishda baholandi. Olingan natijalar turli rang va yosh-jins guruhlariga mansub qo'ylar orasida jun mahsuldorligi ko'rsatkichlari bo'yicha sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatdi. Eng yuqori jun mahsuldorligi Qambar rangli qo'ylarda, eng past ko'rsatkichlar esa po'lat rangli qo'ylarda qayd etildi. Tadqiqot natijalari qorako'lchilikda seleksiya-naslchilik ishlarini takomillashtirish va yuqori sifatli jun xomashyosi yetishtirishda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *sur qorako'l qo'ylari, jun mahsuldorligi, yosh va jins guruhlari, rangdorlik, Qizilqum cho'li.*

Аннотация. *В статье изучена шерстная продуктивность серых каракульских овец, разводимых в экстремальных экологических условиях пустыни Кызылкум, в зависимости от возраста, пола и окраски. Исследования проведены в производственных отарах Тахтакупырского района, где комплексно оценивались годовой настриг шерсти, длина и качество шерстяного волокна. Полученные результаты показали наличие достоверных различий по показателям шерстной продуктивности между овцами различных возрастно-половых и цветовых групп. Наиболее высокие показатели шерстной продуктивности установлены у овец окраски «Қамбар», тогда как наименьшие значения отмечены у овец стального окраса. Результаты исследования имеют важное значение для совершенствования селекционно-племенной работы и*

повышения эффективности производства шерстяного сырья в каракулеводстве.

Ключевые слова: *серые каракульские овцы, шерстная продуктивность, возраст и пол, окраска, пустыня Кызылкум.*

Annotation. *This article investigates the wool productivity of grey Karakul sheep raised under the harsh ecological conditions of the Kyzylkum desert, depending on age, sex and coat color. The research was conducted in production flocks located in the Taxtakopir district, where annual wool yield, fiber length and wool quality were comprehensively evaluated. The results revealed significant differences in wool productivity among sheep of different age-sex and color groups. The highest wool productivity was recorded in Qambar-colored sheep, while the lowest values were observed in steel-colored sheep. The findings of the study are of scientific and practical importance for improving breeding programs and increasing the efficiency of wool production in Karakul sheep farming.*

Keywords: *grey Karakul sheep, wool productivity, age and sex groups, coat color, Kyzylkum desert.*

Mavzuning dolzarbligi. Qorako‘l qo‘ylari asosan cho‘l hududlarida, xususan, Qizilqum cho‘lining murakkab va keskin iqlim sharoitlarida boqiladi. Ushbu ekologik muhit qorako‘l qo‘ylarida yuqori darajadagi moslashuvchanlik, chidamlilik hamda mustahkam konstitutsiyaviy tuzilmaning shakllanishiga olib kelgan. Mazkur belgilar qorako‘l qo‘ylarining mahsuldorligiga, jumladan jun mahsuldorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Boshqacha aytganda, turli konstitutsiya tipiga mansub qo‘ylar o‘zlarining mahsuldorlik darajalari bilan bir-biridan sezilarli darajada farqlanadi.

Shu jihatdan, qorako‘l zotini yaratgan tajribali chorvadorlar konstitutsiya turlarining ahamiyatini avvaldan anglab yetgan va seleksiya ishlarini qo‘ylarni jun turi hamda konstitutsiyaviy tiplariga ajratgan holda olib borgan.

Keyingi yillarda qorako‘lchilikda qo‘ylarni jun va konstitutsiyaviy tiplari bo‘yicha tanlash hamda juftlash ishlari muhim seleksiya yo‘nalishiga aylangan. Ushbu jarayon toza charm sifatini yaxshilashga qaratilgan tanlov ishlari bilan uyg‘un holda olib borilmoqda. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, hayvonlarning konstitutsiyasi ularning nasliy qadr-qimmati, mahsuldorlik darajasi, temperament hamda hayotchanlik ko‘rsatkichlarini (yashovchanlik, chidamlilik va irsiy barqarorlik) belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

Qorako‘l qo‘ylarining konstitutsiyaviy tiplari nafaqat irsiy omillar ta’sirida, balki tashqi muhit sharoitlari — oziqlantirish darajasi, parvarish texnologiyasi, iqlim va boshqa ekologik omillar ta’sirida ham shakllanadi [1,3,4].

Qo‘ylarning jun mahsuldorligi ularning nasliy xususiyatlari, oziqlanish darajasi va saqlash sharoitlariga bevosita bog‘liq bo‘lib, hayvon organizmining umumiy fiziologik holatini aks ettiradi. Junning tozaligi, tolalarning pishiqligi va egiluvchanligi, shuningdek, o‘ziga xos tabiiy jilosi yuqori parvarish madaniyati va chorvachilikda qo‘llanilayotgan ilg‘or texnologiyalar natijasidir.

Jun mahsulotining sifati va miqdori nafaqat hayvonning biologik salohiyatini, balki ishlab chiqarish jarayonidagi mehnat samaradorligini ham belgilaydi. Shu bois qo‘ylarni me’yoriy oziqlantirish, o‘z vaqtida qirqish hamda parvarish jarayonlarini texnologik talablar asosida olib borish yuqori sifatli xomashyo olish imkonini yaratadi. Ushbu omillarning barchasi yakunda olingan junning texnik qayta ishlashga yaroqliligi va iqtisodiy qiymatini belgilaydi.

Jun qoplami hayvonlarni qish mavsumidagi sovuq shamollardan hamda yoz oylaridagi yuqori haroratlardan himoya qiluvchi tabiiy termoregulyator vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, u tanani namlik, yomg‘ir va qor ta’siridan asrab, sanoat tarmoqlari uchun muhim xomashyo manbai hisoblanadi.

Tajriba maqsadi. Taxtako‘pir tumani tabiiy-iqlim sharoitida sur qorako‘l qo‘ylarining biologik va mahsuldorlik xususiyatlarini o‘rganish, ularning mahsulotlarini qayta ishlash samaradorligini ilmiy asosda baholash hamda ishlab chiqarish jarayoniga ilg‘or usullarni joriy etish yo‘llarini aniqlash.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot ishlari Qizilqum cho‘lining keskin ekologik sharoitida joylashgan Taxtako‘pir tumani hududidagi qoraqalpoq sur qorako‘l qo‘ylarining ishlab chiqarish podalarida olib borildi. Tadqiqotga turli yosh va jins guruhlariga mansub sog‘lom qo‘ylar jalb etilib, ular rangdorlik belgilariga ko‘ra guruhlarga ajratildi. Tajribalar davomida qorako‘l qo‘ylarining jun mahsuldorligi, biologik hamda morfologik ko‘rsatkichlari kompleks ravishda o‘rganildi.

Jun mahsuldorligini baholashda qirqimdan olingan yillik jun chiqimi, jun tolalarining uzunligi va sifati asosiy ko‘rsatkichlar sifatida qabul qilindi. Jun tolalarining sifati ularning bir xilligi, pishiqligi va tashqi ko‘rinishi bo‘yicha baholandi. Olingan tajriba ma’lumotlari variatsion-statistik usullar yordamida qayta ishlanib, o‘rtacha qiymat (X), standart xato (Sx), o‘zgaruvchanlik koeffitsiyenti (Cv) hamda ishonchlilik darajasi (P) hisoblab chiqildi. Statistik tahlillar “Zootexniklar uchun biometrik hisoblashlar qo‘llanmasi” asosida amalga oshirildi [2].

Tadqiqot natijalari. Ilmiy izlanishlar natijalariga ko‘ra, qo‘ylarning jun mahsuldorligi ularning biologik va etologik xususiyatlari bilan ma’lum darajada bog‘liq ekanligi aniqlandi. Jumladan, turli etologik tipga mansub qo‘ylar junining miqdori, sifati hamda morfologik tuzilishida sezilarli farqlar kuzatildi.

Shu asosda olib borilgan tadqiqotlarda turli rang va yosh-jins guruhlariga mansub qo‘ylarning jun mahsuldorligi ko‘rsatkichlari — qirqim massasi, jun

tolalarining uzunligi va bir xilligi o‘rganildi. Tadqiqot natijalari 1-jadvalda umumlashtirib keltirilgan.

1-jadval

Turli yosh va jins guruhlaridagi qo‘ylarning yillik jun mahsuldorligi ko‘rsatkichlari

Rang-barang lik	Jun mahsuldorligi ko‘rsatkichi, g.								
	Sovliqlar			Qochqorlar			Qo‘zilar		
	n	X±Sx	Cv	n	X±Sx	Cv	n	X±Sx	Cv
Cham chiroq	25	1935,6± 33,40	8,26	10	2362,8± 48,30	6,65	25	828,7± 28,84	17,3
Polatı sur	25	1791,3± 32,10	8,68	10	2134,4± 38,05	5,47	25	714,3± 22,06	14,5
O‘ruk gul	25	1876,7± 43,25	11,73	10	2269,2± 41,80	5,79	25	824,6± 24,15	14,0
Qambar	25	1974,5± 47,60	12,22	10	2391,7± 45,93	6,14	25	857,3± 26,00	14,5

Jun mahsuldorligi ko‘rsatkichlari tahlili natijasida turli rangdagi qo‘ylar orasida ma’lum darajada farqlar mavjudligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, barcha toifadagi hayvonlar ichida eng yuqori jun mahsuldorligi Qamar rangli qo‘ylarda qayd etilgan. Ularning o‘rtacha jun miqdori sovliqlarda 1981,8±47,60 g, qo‘chqorlarda 2391,7±45,93 g, qo‘zilarda esa 857,3±26,00 g ni tashkil etadi.

Eng past jun ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari po‘lat rangli qo‘ylarda kuzatildi, bu ularning irsiy va morfologik xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shamchiroq va Erikgul rangli qo‘ylar esa oraliq natijalarni ko‘rsatib, barqaror hosildorlik darajasini ko‘rsatdi.

Umuman olganda rangdorlik bo‘yicha aniqlangan bu farqlar jun mahsuldorligining irsiy omillar, oziqlantirish sharoiti va parvarishlash texnologiyasiga sezilarli darajada bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida Qizilqum cho‘lining keskin ekologik sharoitida boqilayotgan sur qorako‘l qo‘ylarining jun mahsuldorligi ularning biologik, morfologik hamda etologik xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq ekanligi aniqlandi. Qo‘ylarning yosh va jins guruhlari, shuningdek rangdorlik belgilariga qarab jun mahsuldorligi ko‘rsatkichlarida sezilarli farqlar mavjudligi kuzatildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, barcha yosh-jins guruhlari orasida eng yuqori yillik jun mahsuldorligi Qambar rangli qo‘ylarda qayd etilib, ular sovliqlar, qo‘chqorlar va qo‘zilar guruhida boshqa rangdorlik turlariga nisbatan ustunlik ko‘rsatdi. Aksincha, po‘lat rangli qo‘ylar jun mahsuldorligi bo‘yicha nisbatan past ko‘rsatkichlarga ega bo‘ldi. Bu holat jun hosildorligining irsiy omillar bilan bir qatorda konstitutsiyaviy va morfologik xususiyatlarga ham bog‘liqligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, olingan ma’lumotlar qo‘ylarning jun mahsuldorligi oziqlantirish darajasi, parvarish texnologiyasi va saqlash sharoitlariga sezilarli darajada bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi. Jun qoplami hayvon organizmida muhim fiziologik vazifalarni bajarib, tashqi muhit omillariga moslashishda hamda hayvonlarning hayotchanligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari sur qorako‘l qo‘ylarini seleksiya qilishda ularning yosh, jins, rangdorlik va jun mahsuldorligi ko‘rsatkichlarini kompleks baholash zarurligini ilmiy asoslab berdi. Olingan xulosalar qorako‘lchilikda seleksiya-naslchilik ishlarini takomillashtirish, yuqori sifatli va raqobatbardosh jun xomashyosi yetishtirish hamda chorvachilik ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligini oshirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Юсупов С ва бошқалар. Қоракўлчиликда наслчилик ишларини юритиш ва кўзиларни баҳолаш бўйича кўлланма. – Тошкент, 2015. – Б.31.

2. Плохинский Н.А. Руководство по биометрии для зоотехников. Москва. 1969. - С.256.

3. Уримбетов А. А. Репродуктивный потенциал каракульских овец сур каракалпакского породного типа в зависимости от условий содержания на северо-западе Кызылкумов. Экологический Вестник Северного Кавказа, 2019.-15(4)-С. 91-93.

4. Уримбетов А.А. «Научные основы и селекционные приемы повышения продуктивности каракульских овец каракалпакского сура» АВТОРЕФЕРАТ ДИСС. ДОКТОРА С-Х.Н. (DSc).-Ташкент-2025.